“Trastbank”ning kredit reytingi “Ahbor-Reyting” tomonidan tasdiqlandi.

«Axbor-reyting» reyting agentligi «Trastbank» xususiy aksiyadorlik bankiga 2019 yil monitoringi natijalariga koʻra, Bankning kredit reytingini milliy shkala boʻyicha "uzA+" darajasida juda yuqori «Ijobiy» prognozli kredit reytingini taqdim etdi.

«uzA+» reytingi bankning kreditga layoqatlilik darajasi juda YuQORI ekanligidan dalolat beradi, bu uning faoliyatida kredit tavakkalchiligining juda past darajasini aks ettiradi. «uzA+» reytingiga ega boʻlgan bank kreditorlar, omonatchilar va investorlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarini oʻz vaqtida va toʻliq bajarish uchun yuqori salohiyatga ega ekanligini bildiradi.

«Trastbank» XABga berilgan reyting bankning bank bozorida oʻsib borayotgan mavqeini, yuqori obroʻsini va taniqli brendini, xatarlarni boshqarish darajasi yuqoriligini, balanslangan likvidlik pozisiyasini va kapitallashuvni, shuningdek moliyaviy koʻrsatkichlarning barqaror oʻsib borishini aks ettiradi.

«Ijobiy» reyting prognozi «Trastbank» xususiy aksiyadorlik bankining bank bozorida koʻrsatkichlarining oʻsib borayotganini, aktivlarning sifati va moliyaviy koʻrsatkichlarining yanada yaxshilanganligini, bank bozoridagi pozisiyalarining mustahkamlanishini, kapitallashuv va Bankning daromadliligi oshganligini anglatadi.